

## **BOSHLANG`ICH SINFLARDA O`QISH VA TABIATSHUNOSLIK FANLARINI O`QITISHDA FANLARARO INTEGRATSIYANI AMALGA OSHIRISH.**

*Yoqubjonova Go`zalxon Xasanboy qizi*

*Qo`qon davlat pedagogika institute Boshlang`ich ta`lim metodikasi kafedrasi o`qituvchisi*

*Yo`ldashaliyeva Gulzoda Bahodirjon qizi*

*Boshlang`ich ta`lim fakulteti talabasi*

**Annotatsiya:** Integratsiya o`qituvchilarning turli fanlar bo`yicha kuzatishlari va xulosalarini tasdiqlab yoki chuqurlashtirib beruvchi yangi dalillarni topib berish manbaidir.Ular faoliyatning turli shakllarining almashib turishi orqali o`quvchilarning charchashi va asabiylashishini oldini oladi.

**Kalit so`zlar:** Ta`lim, integratsiya, metod, metodika, integratsiyalashgan darslar, ta`lim va tarbiya, pedagogik texnologiyalar.

Boshlang`ich sinflarda o`qish va tabiatshunoslik darslarini o`qitishda fanlararo aloqadorlikni amalga oshirish-integratsiyalash orqali boshlang`ich sinf o`quvchisi atrofidagi olamni bir butunligicha qabul qiladi. Uning uchun tabiatshunoslik, ona tili, musiqa va boshqa o`quv fanlaring nomi emas, balki atrofidagi olam ob`ektlarining tovushlar, ranglar, hajmlarning turli-tumanligi qiziqarlidir. Bu kabi bolalarning tabiat va o`qish fanlaridagi barcha narsalarning bog`liqligini ko`rishga o`rgatish kerakligini har bir iste`dodli o`qituvchi sezaga oladi, biladi.. O`qish va tabiatshunoslik darslarini o`qitishda fanlararo aloqadorlikni amalga oshirishning asosiy maqsadi — boshlang`ich maktabdayoq tabiat va jamiyat haqida yaxshi tasavvur hosil qilish va tabiatdagi olam, ularning rivojlanishi qonunlariga o`z munosabatini shakllantirishdir. Mana shuning uchun ham boshlang`ich sinf o`quvchisi predmet yoki voqealik hodisalarning bir necha tomonidan ko`rishi va tasavvur qila olishi muhimdir. O`qish va tabiatshunoslik darslarini

o'qitishda fanlararo aloqadorlikni amalga oshirish, mavzularni o'zlashtirish va olamdagi bor narsalar qonuniyatlarini tushunishda ta'limga integratsiyalashgan yondashuv metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Bunga turli darslar tushunchalariga ko'p marta qaytish, ularni chuqurlashtirish va boyitish, shu yoshga tushunarli bo'lgan muhim belgilarni aniqlash orqali erishish mumkin. Ya'ni, yaxshi shakllangan tuzilish va o'tkazish tartibiga ega bo'lgan, tarkibiga shu o'qish va tabiatshunoslik o'quv predmetiga tegishli bo'lgan tushunchalar guruhi kiritilgan har qanday dars integratsiyaga asos qilib olinishi mumkin.

Masalan, «qish», «sovuq», «bo'ron», kabi tushunchalar o'qish va tabiatshunoslik darslarida ko'rib chiqiladi. Tushunchalarning tahlil qilinishi mobaynida dars ijodiy, erkin bo'lishi bilan birga, yaxlit, mantiqan ketma-ket, o'ziga xos o'tishiga sabab bo'ladi. Shu bois hozirgi kunda o'qish va tabiatshunoslik darslarini o'qitishda fanlararo aloqadorlikni amalga oshirish uchun umumiy bo'lgan tushunchalar orasidagi aloqalarni o'rnatish psixologik va metodik asos bo'lgan integratsiyalashgan darslar tizimini ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. O'qish va tabiatshunoslik darslarini o'qitishda fanlararo aloqadorlikni amalga oshirish, shu bilan birga fanlararo aloqalar dars tarkibi darajasida o'rgatilishi va zaruriy o'qitish vositalari bilan ta'minlanishi kerak. Tadqiqotimiz davomida o'qish va tabiatshunoslik darslarini o'qitishda fanlararo aloqadorlikni amalga oshirishda faol aqliy faoliyatga yordam beruvchi omillar — integratsiyalash uchun fanlarning ma'qul birlashishi, o'qituvchi va o'quvchi harakatlarining mos kelishi, bolalarning yosh imkoniyatlarini hi sobga olgan holda mazmun, metod, usullarni tanlashdan iborat.

Buning uchun avvalo, qaysi mavzular integratsiyalash uchun mos kelishini aniqlab olishimiz kerak. Bunday darslarning negizi —o'qish va tabiatshunoslik fanlari asosiy mavzulari mazmunining yaqinligi va mantiqiy aloqalari.

*Integratsiyalashgan darslar.* Boshlang'ich sinfda integratsiyalangan kurs bu — sinfdan tashqari o'qish. Bu erda yaxlit jarayon kechadi:

a) kitob o'qish asbobi sifatida o'qish darslarida olgan o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish;

b) matn ustida ishlash;

O'qish-tabiatshunoslik didaktik tizimida predmetlararo asosda integratsiyalash o'qituvchi (TA'LIM berish) va o'quvchi (TA'LIM olish) harakatlarining mos kelishini ko'zda tutadi. Har ikki faoliyat ham umumiylashtirishga ega: maqsadlar, sabablar, mazmun, vositalar, natijalar, nazorat. Biroq, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatlarining mazmunida farq bor.

1. Maqsadli bosqichda o'qituvchi umumiylashtirishga qaratishlari kerak. Maqsadli bosqichda o'qituvchi umumiylashtirishga qaratishlari kerak. o'quvchilar o'qituvchi boshchiligidagi predmetlararo bog'liqliklarni tushunib etishlari, turli predmetlardan kerakli bilimlarni tanlab olishlari, bunda ular o'z e'tiborlarini faqat umumiylashtirishga emas, balki ko'chirish, tahlil qilish, shaxsning belgilari, qobiliyat va qiziqishlarini rivojlantirishga qaratishlari kerak.

2. Isbotlash bosqichida o'qituvchi o'quvchilarining dunyoqarashni kiritadi, shu bilan birga integratsion dalillar, tushunchalar, muammolar majmuyi darajasidagi boshqa predmetlardan olingan tayanch bilimlarni jalb qiladi. o'quvchilar o'z irodalari, dunyoqarashni kengaytiruvchi bilimlarga qiziqishga yo'naltiriladi.

3. Faoliyatning mazmun bosqichida o'qituvchi yangi o'quv materialini kiritadi, shu bilan birga integratsion dalillar, tushunchalar, muammolar majmuyi darajasidagi boshqa predmetlardan olingan tayanch bilimlarni jalb qiladi. o'quvchilar umumpredmetli tushuncha, muammolarni umumiylashtirishga qaratishlari kerak.

4. Vositalar tanlash bosqichida o'qituvchi turli predmetlar bi- limlarini umumlashtirishga yordam beruvchi ko'rgazmali vositalarni — darsliklar, jadvallar, sxemalar savolnomalar, amaliy vazifalar. o'quvchilar ko'chirish, umumlashtirish, biriktirish xarakterlarini integratsion masalalarni hal qilishda ko'rgazmali vositalar yordamida bajaradilar.

5. Keyingi bosqich — natija. Bunda boshlang'ich sinf o'qituvchisi ta'limga berish, rivojlantirish, tarbiyalash maqsadida integratsiyani amalga oshirish uchun pedagogik bilimlarni qo'llaydi. o'qituvchi bilimlar tizimida umumlashtirishini amalda qo'llaydi.

6. Nazorat qilish bosqichida o'qituvchi bir-biri bilan bog'lan- gan predmetlarga o'quvchilarining tayyorlarligini baholaydi, nazorat qiladi, o'zlashtirish sifatida baholaydi. o'quvchilar o'z bilimlarini baholashni, turli predmetlar bo'yicha o'z-o'zini ham, ularni birlashtirish ko'nikmalarini ham nazorat qilishadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirhojjiddinovna, J. D., Shavkatovna, A. M., & Alijonovna, M. D. (2022). Lingupoetic Features Of Unconventional Combinations And Agricultural Terms In Literary Texts. *Journal of Positive School Psychology*, 6(11), 1599-1604.
2. Abdulkhayeva, M. (2023). ONA TILI VA O 'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA DIDAKTIK METODLARNING TUTGAN O 'RNI. Scienceweb academic papers collection.
3. Musharrafa, A. (2023). Relationship of Mother Language and Reading Literacy with Natural Science. *World of Science: Journal on Modern Research Methodologies*, 2(3), 78-82.
4. Abdulkhayeva, M. The Role of Dictations in the Development of Students' Written Speech in the First Class. *International Journal of Innovative Research in Science, Engineering and Technology*.
5. Abdulkhayeva, M. (2023). O'Z DIKTANT YOKI YODDAN YOZUV DIKTANTI. *Interpretation and researches*, 1(1).
6. Abdulkhayeva, M. (2023). AKTdan foydalangan holda diktant olish metodikasi. Scienceweb academic papers collection.
7. Musharraf, A. (2023). EDUCATIONAL DICTATION AND ITS TYPES. *Open Access Repository*, 9(6), 211-216.
8. Abdulhayeva, M. (2023). EDUCATIONAL DICTATION AND ITS TYPES. NOVATEUR PUBLICATIONS *JournalNX-A Multidisciplinary Peer ReviewedJournal*.

9. Yigitaliyevich, A. U. (2022). SECOND IN ORDER PARAMETERIZED PRIVATE DERIVATIVE DIFFERENTIAL EQUATIONS. Open Access Repository, 8(12), 489-498.
10. Isaboyeva, D. (2023). THE ROLE OF THE NATIONAL IDEA AND IDEOLOGY IN THE PROCESS OF GLOBALIZATION. Science and innovation in the education system, 2(12), 133-137.
11. Alijonovna, M. D., & Gozalkhan, Y. (2022). IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARITY IN THE TEACHING OF READING AND NATURAL SCIENCES. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(12), 1628-1632.
12. Go'zalkhan, Y. (2023). METHODOLOGY OF TEACHING SCIENCE IN PRIMARY GRADES. Conferencea, 18-21.
13. Sabirjankizi, M. S., Salimovna, V. M., Abramovich, R. Z., & Rakhmonovna, N. G. (2022). WOMEN'S AND YOUTH EMPLOYMENT AS AN URGENT PROBLEM OF SOCIAL PEDAGOGY. International Journal of Early Childhood Special Education, 14(7).
14. Alijonovna, M. D., & Gozalkhan, Y. (2022). IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARITY IN THE TEACHING OF READING AND NATURAL SCIENCES. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(12), 1628-1632.
15. Alijonovna, M. D. (2023). Terms-language wealth. INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION, 2(3), 58-62.
16. Dilafruz, M. (2022). BOUNDARY ISSUE IN THE TERMINO
17. Alijonovna, M. D. (2022). THE ROLE OF TERMS IN LINGUISTICS. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 9, 144-152.